XALQ DEPUTATLARI YAKKABOG' TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 16 - avgust VI-44-75-4-68-K/22 Yakkabog‘ tuman hokimligi

Yakkabog’ tumanidagi “Qatag`on” mahalla fuqarolar yig`ini nomini “Chimqo`rg`on” nomiga o`zgartirish to`g`risida

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni 10-moddasi hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktyabrdagi “Geografik ob’ektlarning nomlari to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik ob’ektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli Qarori ijrosini ta`minlash va O`zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov topshirig`iga ko`ra, mavjud ma`muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari nomlarini tartibga solish to‘g‘risidagi masalalarni ko‘rib chiqish borasidagi hamda Qashqadaryo viloyat hokimligining “Geografik ob’yektlarning nomlash va qayta nomlash bo‘yicha komissiyasiga Yakkabog‘ tumani komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflarga, yani,“Qatag`on” mahalla fuqarolar yig`ini nomini “Chimqo`rg`on” nomiga o`zgartirish to`g`risida”gi 2022-yil 25-apreldagi B-1-13/77 sonli xati yuborilganligi va geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasi tomonidan ma’qullanganligi va e’tiroz yo‘qligi, taqdim etilgan qarorga muvofiq qonun talablari asosida ish olib borish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yakkabog‘ tumani komissiyasi tomonidan taqdim etilgan takliflarga, yani,“Qatag`on” mahalla fuqarolar yig`ini nomini “Chimqo`rg`on” nomiga o`zgartirish to`g`risida”gi 2022-yil 25-apreldagi B-1-13/77 sonli xati yuborilganligi va

geografik ob’yektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasi tomonidan ma’qullanganligi inobatga olinsin.

2. Geografik ob’yektlarga nom berishda nomlanishlarning milliy mentalitetimizga mosligi, o‘sha joyning o‘tmishi, tarixi bilan bog‘liqligi, qolaversa, mahalliy aholining fikri inobatga olinsin.

3. “Qatag`on” mahalla fuqarolar yig`inining nomi “Chimqo`rg`on” mahalla fuqarolar yig`ini deb o`zgartirilsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi Yakkabog` tuman filiali boshlig`i (U.Turdiyev) taklif qilingan nomni geodeziya, kartografiya va davlat kadastrida Davlat ekspertizasidan o`tkazsin va xalq deputatlari tuman Kengashi tasdiqlaganidan so`ng ro`yxatga kiritish uchun yuborsin.

5. Tuman hokimi tashkiliy nazorat guruhi rahbari (I.Xalilov) xalq deputatlari tuman Kengashi tasdig`iga kiritsin.

6. Mahalla va nuroniylarni qo`llab-quvvatlash bo`limi boshlig`i (S.Axmedov), tuman arxitektura va qurilish bo`limi boshlig`i (S.Normaxmatov) “Qatag`on” MFY raisi bilan birga mahallaning yangi nomini belgilangan standart bo`yicha yozdirib, belgilangan joylarda ilib qo`yilishini tashkil etsin.

7. Tuman ichki ishlar bo`limi fuqarolarning ro`yxatdan o`tkazishda mahallaning yangi nomini inobatga olsin.

8. Tuman hokimining matbuot xizmati kotibi (Sh.Xasanov), “Yakkabog` ovozi” gazetasi bosh muharriri (B.Azizov)lar mahallaning yangi nomini matbuot va tuman hokimligi saytida e`lon qilinishini ta`minlasin.

9. Mazkur qaror rasman e`lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari D.Mingboevga, nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jalik va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Juraev zimmasiga yuklatilsin.

Yakkabog` tuman hokimi **L.J.ABDULLAYEV**